



## BUXORO AJDODIY SAN'ATI "SHASHMAQOM" TIZIMINING NAZARIY TAMOYILLARI

*Bexruz Hamidovich Boltaev*

*Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi*

Markaziy Osiyo va yaqin sharq mamlakatlari zaminida musiqiy madaniyat va tasviriy san'at Yevropa va ayrim Sharq davlatlariga qaraganda juda erta rivojlangan. Zardushtiy davrida saroy marosimiy musiqa ijrochilik amaliyoti yuqori darajaga ko'tarilgan. Misol tariqasida "Qiri" qo'shiqchiligini keltirish mumkin, buni nafaqat saroyda, hatto keng aholi o'rtasida ham ijro etishgan. Musiqa san'ati namunalarining arxeologik topilmalari, umum ijrochilik madaniyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, sahnaviy holatdagi Riton [budda haykali] minbari miloddan oldingi IV-V asrlarga tegishlidir. N.Hakimov tadqiqotlarida asosiy ta'sir doirasidagi musiqaviy san'at turlarining uslublari quyidagicha tasnif etiladi:

Saroy marosimiy uslublari, ya'ni haram va saroy uslublari; 2.Saroy harbiylari uslublari-ogohlantiruvchi tartib [salyutlar, uchrashuv marshlari]; b) harbiy orkestr uslublari; 3. Madaniy tarzdagi uslublari- a) vokal madaniyati. b) sozandalik madaniyati. 4. Kushon musiqachilari madaniyati- a) shahar uslubi, b) qishloq uslubi, v) vokal va cholg'uchilik uslubi, g) harbiylar uslubi [shahar qo'riqchilari], d) marosimiy uslublari<sup>1</sup>.

Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy an'alarining o'xshashligi ularning yanada takomillashib borishiga asos bo'lgan. Bunda, ayniqsa, o'sha davr saroy musiqa san'ati ta'siri yetakchilik qilgan. Ijrochilik amaliyotida, ayniqsa, Qadimgi Buxoro zaminida "Dabiriston" professional maktabi an'analarga boy bo'lgan. Shahar musiqiy akademik madaniyati va san'atida quyidagi yo'nalishlar mavjud bo'lgan: 1.Buxoro ajdodiy san'ati bugungi "Shashmaqom" 2. Musiqiy cholg'uchilar va hofizlar; 4. Vokal-xor san'ati. 3. Raqqos va Raqqoslar; 4. Aktyorlar va masxarabozlar; 5.Yig'ichilar; 6. Qo'riqchi mextarlar va Dehat qishloq (Folklor) tizimi havastmandlari, dan iborat bo'lgan. Shuningdek, qaytarmas hattotlik, uymakorlik, haykaltaroshlik va tasviriy muxandislik san'ati<sup>2</sup>dan iborat bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, shu davrda Markaziy Osiyoda mahalliy aholi yil davomida 7 turdagi bayramni keng nishonlagan. Bayramlardan «Navro'z» go'yo podshohning tug'ilishi kuni sifatida tantana qilingan. Ayniqsa, xuddi shu bayram hamda shu tuzdagi o'zga urf-odatlar, marosimlar o'z navbatida yangi an'analarning shakllanishiga olib kelgan. Bu davrda kifara, fleyta [nay], arfa [chang] eng qadimgi cholg'ulardan do'l-nog'ora, yirik rez nog'ora, harbiy nog'ora, kichik nog'ora, doyra [daff], tablak, hind tablagi, ko's, tabira kabi urma cholg'ularning o'sha davr turlari yetakchilik qilgan.

Asqarali Rajabovning ma'lumotiga ko'ra, Buxoro musiqa madaniyatining o'ziga xosligi Darboriy [saroy] musiqa, ya'ni Buxoro mumtoz san'ati [keyinchalik Shashmaqom turkumi], diniy-marosimiy musiqa an'analari, harbiy musiqa turlari, pahlavonlar musiqasi, shahar hunarmandchilik musiqa yo'nalishi, Rustoy va Dehat, ya'ni folg'lor ijodiyoti namunalaridan tashkil topgan.

Saidiy S.B. Zardushtiy va buddaviylar davri musiqa san'ati //J. Moziydan sado.- T.- 2003.- №№ 3-4.- 28-29 b.

Saidiy S, Maarkaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular (o'zbek va tojikmusiqaan'analari misolida), Toshkent- "Musiqa" nashriyoti, 2008 yil. 144 bet.





Darboriy musiqasi o'sha davrda mohir va mashhur ijrochilarni saroyda jamlab, muayyan kasbiy ijrochilik oily professional maktabini rivojlantiradi. Diniy-marosimiy musiqa esa, har bir insondan Avestoning 21 kitobi, ya'ni «Gatho»larni maxsus an'analarda ayta bilishni talab qiladi.<sup>3</sup> Harbiy musiqa ustoz sozanda - mehtar rahbarligida ijro qilingan va ustoz-shogird tizimida o'rganilgan. Pahlavoniylarning alohida musiqa maktablari bo'lmagan. Ular asosan diniy va darboriy maktablarda ta'lim olganlar. Buxoroda shahar ustozona kasbiy musiqasi ancha taraqqiy etgan bo'lib, undan boshqa viloyatlar va davlatlarning sozanda, xonandalari ham o'rnak va shogird tarzida ta'lim olganlar.

Markaziy Osiyo tarixining V- VII asrlarda kelib Buxoro tojik musiqa san'ati yanada tiklanib, islomdan oldin rivojlanib ravnaq topgan edi. Biroq, arablar harbiy yurishidan so'ng, Markaziy Osiyoda islom dini o'rnatildi va Buxoro xalqining ajdodiy san'ati bo'lmish, hozirgi "Shashmaqom" esa "Maqom" deb yuritildi. Undan oldin esa davlatning "Ramz"i, "Madhiya"si sifatida saroy oliy an'anaviy (ajdodlar ruhi va tarixi bilan bo'g'liq) musiqa ijrochiligi merosi hisoblangan. Ushbu meros ARK-da podshohning qattiq nazorati ostida kechgan va rivojlangan edi. Aholiga xizmat qilish, turli ommaviy tadbirlar o'tkazish uchun saroydan ruhsat olgandan so'ng, maxsus nazoratchilar ostida amalga oshirilgan. Boshqa vaqtlarda esa saroyning ARK-darvozasi teppasidagi "Nog'oraxona" ostida joylashgan 25-30 metr balandlikdagi ichki va tashqi saxnasidan turib namoish etilgan. Arab halifatchiligi Buxoro fahri bo'lgan milliy merosiga zid qarashlari bilan uni Buddaviylik san'ati va cholg'ularni ham shaytonning amri deya olovga yoqib yuborish, qonunga zid chiqqan xonandayu-ijrochilarni, raqqosu-raqqosalarni o'lim jazosigacha amr ettirilgan davr ham 200 yil davomida to'sqinlik, yo'l bermaslik va qarshiliklar ostida qoldi. Biroq, Samoniylar Davlatida buyuk feodal Podshohligi e'lon qilingandan so'ng, ushbu davrda Buxoroni "Buxoroyi-Sharif" ya'ni islom dini va madaniyati markazlaridan biri darajasiga ulug'lanishi, uning ma'nan madaniy- ma'rifiy, ilmu-fan ravnaqu rivoji va obodonchiligi hamda buyuk siymolarimizning ahamiyatidandir. Milliy san'atimiz Buxoro Podshoxi Hazrat Ismoil Samoniyning san'atga bo'lgan alohida ahamiyati va safdoshlarining ijobiy falsafaviy dunyoqarashlari zahirida yana tiklana boshlandi.

X asr tarixchisi An-Narshaxiyning ma'lumotlariga ko'ra Buxoro ajdodiy san'atining genezisi bundan 2 ming yil oldin "Avesto" davrida shakllana boshlangan, deydi. Bu masalada yanada chiqurroq e'tibor bersak, unda An- Narshaxiyning keltirgan ma'lumotiga qaraganda X asrdan 2 ming yil qo'shilishida bugungi XXI asr sanasi bilan 4 ming yillikni tashkil etadi, Shakllanayotgan tizimning yangicha va alohida ajralib chiqqan yo'li va uslubiy ijrolarining boshlang'ich davri 2500 yil, Buxoro shaxrining tsivilizatsion tarixidan 1000 yil keyin boshlanganligiga ilmiy farazlar mavjud. Yana bir ilmiy farazda Siyovush podshoxning o'limi munosabati bilan boshlangan an'anaviy ijrochilik va xonandalik tizimining qo'shilganlik, ya'ni cholg'u va Vokal uslublarining qo'shilgan birligi poydevori, bunda, Buxoro ajdodiy san'atining genezisi bilan bog'lanish davri deyish mumkin.

O'zbek adabiyotshunos olimi N. Mallayev qadimiy qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib X-XII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa cholg'ularidan – tanbur, rubob, ko'ssa(qo'sh) nag'ora, qubuz, tabl, zurna, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unun, qonun kabi hamda zarbli va puflama musiqa cholg'ulari ijrochilikda keng qo'llanilganligi haqida, shuning bilan birga shu davrda "Rost", "Xusravoniy", "Boda", "Ushshoq", "Zurafkand", "Bo'slik", "Sipaxon", "Navo", "Basta", "Tarona" va juda ko'p musiqiy asarlar shu nomlanishi bilan ijro etilganligi haqida ma'lumot bergan.<sup>4</sup> **Tibbiyot dunyosining shayxu-raisi va allomasi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham**

Hakimov N. Istoriya ispolnitelstva na narodnix instrumentov Sredney Azii.- D.: Irfon, 1989.- 160 s  
N.M. Mallaeyv. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 1965. 94 s.





**musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Ba'zi musiqiy risolalarda zikr etilishicha Abu Ali Ibn Sino go'yo Sulton Mahmud G'aznaviy, Nosir Xusravlar bilan birgalikda "G'ijjak" musiqa cholg'usini ixtiro qilganligi haqida ma'lumot berilgan<sup>5</sup>** X asrda yashagan Muhammad Ibn Muso al Xorazmiy ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Shunday qilib XII asrlarga kelib Foroboy va Ibn Sinolarning musiqa nazariyasi asosida Xorazmlik olim Ar-Roziy hamda Ash Sheroziy, Urmaviy, Amuliy va boshqa olimlar ham musiqa ilmi bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixda juda ko'p istilochilarni, bosqinchilik harakatlarini o'z boshidan kechirgan. Masalan: Axmoniylar, Sosoniylar, Makidoniyalik Iskandar (334), Chin hoqonlari (IV asr), Arab xalifaligi (VII asr. 665), Mo'g'ul istilochilari (XII asr. 1219), 1921-1990 yillar davomida Rossiya zo'rvonligidagi totalitariyati va boshqalar. Bu davrlarda Buxoro, Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona vodiysining ko'p joylari xarobaga aylangan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi Xorazm, Afrosiyob, Xolchayon, Termiz, Varaxsha, Bolaliktepa, Dalivarzintepa hududlarida olib borilayotgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan juda ko'p yodgorliklarda adabiyot, san'at va madaniyat sohasiga tegishli hamda juda ko'p musiqa cholg'ularining qoldiqlari, xonanda va sozandalar aks ettirilgan terrakota suratlarning nusxalari topilmoqda.

Faqat Amir Temur Zamonida Turkiston mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilindi. Movarounnahr qo'lga olinib, Samarqand uning poytaxti deb e'lon qilindi. Undan tashqari Oltin O'rdaga yurib Shimoliy Kavkazni, Astraxan, Qora dengiz bo'ylari 1399 yil, Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya 1402 yil, keyin Iroq, Suriya va boshqa 27 mamlakatlarni egalladi. Shu davrda Movarounnahrda madaniyat, adabiyot, san'at rivojlandi.

Shuni qayt etish joizki, Temuriylardan so'ng Markaziy Osiyo zaminidagi ichki urushlari ham bir-biroviga qarshi bo'lgan munosabat natijasida san'at ahlining ijodiyoti va tadqiqot-yurishlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. So'ngi asrlarda SHayboniyxon davrida to'liq shakllangan "Shashmaqom" nomi bilan yana tiklandi. Ammo, Buxoro Amirligi davrining boshlarida San'at yo'nalishlari va "Shashmaqom" san'ati yana qiyinchiliklarni boshidan kechirilishiga sabab, Diniy aqedaparastlarning zarbasida, ayrim qismlarni ijrochiligi to'xtatilgani va Saroydan tashqariga ruxsatsiz chiqish man etilganidandir. Binobarin, Oxirgi Buxoro Amiri Sayyid Olimxon davrida yana tiklana boshlandi, ammo mohir sozanda, otashnafas hofizi qur'on Levi Boboxon, ya'ni Ari Boboxonning bobosi Buxoro Amirining tanburchisi hisoblangan va "Noxuni tillo" sovrindoriga diniy xujumlar uni tinch qo'ymadi va Buxoro Diniy aqedaparastlarning hasadchiligidan, Buxoro Amiri tomonidan Samarqandga badarg'a qilingan edi.

Markaziy Osiyo davlatlari CHor Rossiyasi bosqini va Ateistik xujumlar qo'lga o'tib 70-yillik zarbani boshidan kechirdi. Bunda; "Shashmaqom" go'yo diniy, uni ijro etishni ta'qiqlash va unga nisbat milliylikni aks etguvchi eng peshqadam an'anaviy cholg'ularimizni kasb sifatida qabul qilmaslik, bular; Tanbur, Sato, Manzur, Tablalar, Qonun va boshqa chog'ularni o'qitish tizimidan chetlashtirilgan edi.

U ham yetmaganidek, ikkinchi jahon urushi ham ko'plab mohir sozanda va ijrochi bastakorlarimizni o'zi bilan birga abadiyatga olib ketdi. Keyingi yillarda faqat "Tanbur" cholg'usiga ruhsat berildi. Yana, 80-90 yillarga qadar kuchli ateistik zarbalar Gidlyanchilar va ining qo'l ostidagi qonunchilar maktabi qo'shilishida "Shashmaqom" san'atini rivojiga to'sqinlik qilgan holda, uni yo'qqa chiqarish, ijrochilarga esa yuridik jihatdan chora ko'rilishiga nisbat ogohlantiruvchi

Askarali Rajabov. "Nag'mai Niyogon". Dushanbe. Adib. 1998. 194 s.



zo'ravonliklar, to'sqinliklar ko'rsatishdi, ushbu bosimda mohir sozandalardan; SHodi Ostonov (tanbur), Hikmat Ziyoyev Dutor, O'lmas Rasulov (G'ijjak), Said Saidiy (Doyra)<sup>6</sup> kabilarga Shaashmaqom ijrochiligini to'xtatish va ijro etmaslikga buyurildi. Milliy iftihorimiz bo'lgan "Shashmaqom" qariyb unutish arafasida edi, Falsafaviy qilib aytganda davlatimizni madaniyatini o'ldirishga bo'lgan intilishlar qo'l kelayotgan edi.

Qo'lyozma asarlardagi ma'lumotlarga qaraganda, IX-X asrlarda o'rta Osiyoning yirik kutubxonalarini o'z fondini fan sohalari bo'yicha joylashtirib, kitobxonlarga fondni ochib beruvchi ro'yxat (katalog) tuzib qo'yganligi haqida ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Masalan, O'rta Osiyoning yirik ensiklopedist olimi Abu Ali Ibn Sino 997 yilda Buxoro honligining kutubxonasidan foydalanishga ruhsat olgandan so'ng, shunday deb yozgan edi: «Men kutubxonaga kirganimda, kutubxona ko'p xonalardan iborat bo'lib, har bir xonada bir fanga oid kitoblar sandiqda saqlanar edi. Men qadimgi mualliflarning ro'yxatidan ko'rib, o'zimga kerakli kitoblarni tanlab oldim». Ibn Sino foydalangan bu ro'yxat - O'rta Osiyoda eng qadimgi bibliografik manba hisoblangan Somoniylar kutubxonasining katalogi bo'lib, afsuski, hali yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmaganligimiz sababli bu haqda to'xtalib o'tirmaymiz.

Ibn Sino tahlilotini jahon bo'ylab keng targ'ib qilgan va uning kitoblarini qund bilan o'rganib chiqqan Buyuk nemis olimi Gegel yuqorida qayd qilinganidek, o'rta asrlarda olimlar tomonidan qator yirik bibliografik manbalar, qo'lyozmalarni o'rganib, ayniqsa Abu Ali Ibn Sinoning "kitob ul-fit tib qonunlari" va Musiqqa ilmi va nazariyasi haqida "Nuqtahoi jolibiy", "Iyqoot nazariyasi" kabi kitoblarini qund bilan o'rganib ularni butun yevropaga tarqatadi. Gegel -ayniqsa, Jahonga mashhur nemis klassik kompozitorlari L.V.Betxoen, V.A.Motsart va ularning maktabiga Ibn Sinoning



"Nuqtahoi jolibiy"<sup>7</sup> kitobidan FERMATO" belgisini kompozitorlar kompozitsion nazariyasi qonunlariga joriy etadi. Bugungi kunda esa, butun jahon musiqqa nazariyasining notatsiyada qo'llaniladigan belgisiga aylangan va ko'p janrlarda nota cho'zimi va yozuvini ham qisqartma shakli deb ataladi. "Fermato" asarning tavsiloti va tezligiga qarab bir oz muddatda cho'zib turishni bildiradi.<sup>8</sup>

Buyuk nemis faylasufi Gegel o'z davrida sharq olimlari qalamiga mansub kitobatlarni o'rganib qaytadi va uzoq vaqt o'tmay qo'lga kiritgan ma'lumotlarni soha mutaxassislariga qarab keng ommaviy tarzda ma'lumotlar tarqata boshlaydi. U Ibn Sinoning falsafaviy qarashlarini jahon bo'ylab tarqatganidan so'ng mashhur bo'lganligi haqida bahzi ma'lumotlarni ham qoldirgan. Ikkinchi jahon urushida ham Adolhf Gitlarning TSTS- guruhli sirli armiyasida ham Gegel falsafasidan olingan nemis "krest belgisi" o'ng qo'llariga chap tomonlama yoysimon holatdagi aksini qo'llab, bog'langan bo'lgan. Yahni krestning mahnosida Gitler butun jahon meniki, men xohlasam planeta va soatning yurishi teskariga, yani chappanasiga aylanadi deya, ushbu krestni qo'llagan.

Ammo, ushbu krest belgisining tarixiga kelsak, qadimdan qo'llanib kelingan va 1-asrda Hindistonda sanhatning xudosiga ishora tarzida ramz belgisi bo'lib kelgan. Bu aqeda hozirgi kungacha ruhiy

Saidiy. Buxoro Miri Arab Masjidi oldidagi aholi uyidan birijda. 1983 yil, may oyi.



Назаров А.Ф. Мумтоз ийқоъ назарияси. Санъатшунослик фанлари доктори илмий даражасига даъвогар диссертацияси.- Тошкент.- 1996.67-68s.

Saidiy S.B. O'zbek musiqasi tarixi.; /. Darslik. Buxoro S.Salim nomidagi "Durdona" nashriyoti. 2020 yil. 81-betlar.





jihtadan o'z tahsirini ko'rsatib kelmoqda. Ibn Sinoda ushbu belgining mahnosi: er, osmon, suv va havo mahnosida borliqning yer yuzidagi barhayotligini bildiradi. Demak, Gegel falsafasida bo'lgan nemis krestining tahlili, aynan Ibn Sinodan olinganligini Gegelning o'zi falsafaviy dunyoqarash daftarida yozib qoldirgan. \_



+

Gitlerchilarning (III) -guruhida yoysimon yo vaqt chappnasiga Ibn Sino X-asrning birinchi choragida Hindistonga safar qilgan va u yerga Buxoro "Tanbur"i va "SHashmaqom" ning "Mushkulot",yani ijrochilik bo'limidan "Buzruk" maqomiga mansub "Tasnifi Buzruk" ijrochilik maqomini o'rgatib Hindularga tanburni sovg'a tarzida qoldirib ketganligi, Hindlar esa hozirgi kunga qadar ushbu maqomni chalib kelmoqdalar va ularda ham o'zlarining ajdodiy sanhatlari bo'lib qolganligiga shubha yo'q. Ammo, Hindlar bilan bo'lgan uchrashuvda ular "Bizga bu qadimgi Buxoro maqomini hazrat Ibn Sino o'rgatib qoldirganlar va bizga bitta Buxoroning "Tanburi Dilkash" cholg'usini ham ajdodlarimizga taqdim etganlar" deyichadi. O'rta asr olimlari qalamiga mansub juda ko'p ilmiy adabiyotlar asliy va ko'chirma nusxa holda bizgacha yetib kelgan-ki, ularda qadimgi fan va madaniyatimizni o'rganishdagi roli, bu ko'rsatkichlarning tuzilish tarixi, uslubi va qo'llanishi haqidagi ma'lumotlar yetarlicha o'rganilmagan. Qancha rivoyat va afsonalar pesh qilinmasin, urf etilgan usullar aslida musiqa ilmini o'ziga yaqin tutgan ulamolar ijodiga mansubligi jiddiy qayd etiladi. Xususan, Mirzo Ulug'bek usul ilmiga baland havas qo'yganligi, Sulton Husayn Boyqaro yaratgan 17 usul hamda Vazir Alisher Navoiy ijodiga mansub 7 usul elda ma'lumu mashhur bo'lgan, deganligi ham diqqatga sazovordir. Ammo mumtoz musiqa negizidagi usullar advor ta'limotining peshvolari tomonidan ushbu fanning ilmiy-nazariy tamoyillari asosida ishlanganligi va bu sohada Xoja Abdulqodir "Sar-omadi advor" martabasini egallaganligi alohida ta'kidlanadi. Sarlavhada ko'rsatilgan 17 mutaorif usul aynan shu Xoja Abdulqodir merosi va qolgan 24 g'ayri mutaorif usullar boshqa ustozlar tomonidan yaratilganligini Darvesh Ali ko'rsatib o'tadi.

Nihoyat, Darvesh Alining musiqiy risolasi ilmiy nazariy yo'nalishi Kavkabiynikidan farqli ravishda musiqiy ilmlarga qaratilganligining yana bir isboti shundaki, mazkur bobda oldin amaliy bilimlar sarhisob etilib, mumtoz 17 usul mundariyasi keltirilgandan so'ng, nazariy tushuncha (niqra, zarb, bo'g'in, bahr)lar qo'shimcha o'rnida beriladi. Bu bo'lak foyda (ya'ni "qo'shimcha") deb, nomlanadigan alohida sarlavha bilan ajratiladi.

#### Adabiyotlar.

1. Ражабов Т. И. тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3 (47). – С. 61-63.
2. Madrimov B., Rajabov T., Nurillaev F. Teaching Bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 4. – С. 6049-6056.





3. Ражабов Т. И., Ибодов У. Р. Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 55-58.
4. Ражабов Т. И. Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83). – С. 34-37.
5. Раджабов Т. И. Описание вековых ценностей в песне " туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 70-71.
6. Ражабов Д. З., Ражабов Т. И. Формирование и развитие узбекской народной лирики //Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире. – 2018. – С. 207-212.
7. Rajabov T. Educational importance of folk songs in primary education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 72-79.
8. Раджабов Т.И., Орипов Н.О. Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методологическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.
9. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
10. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
11. Раджабов Т.И., Рутамова М.Ф. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 404-408.
12. Ражабов Т. И. Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
13. Ражабов Т. И. ХАҚ ҚЎШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 364-368.
14. Раджабов Т.И., Раджабов Д.И. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 331-335.
15. Rajabov T. I. THE ROLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS IN YOUTH EDUCATION IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 884-889.





16. Ибодович Р.Т. Эстетическое воспитание школьников через национальные ценности (на примере бухарского детского фольклора) //Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук. – 2020. – Т. 8. – С. 237-240.
17. Тўхтасин Р. И. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special issue. – С. 64-71.
18. Ибодович Р.Т. ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕТСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА ЗАНЯТИЯХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ //Европейский научный журнал. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 139-141.
19. Исаев С. и соавт. Влияние применения удобрений на урожайность хлопчатника сорта Бухара-102 на засоленных хлопковых полях Узбекистана //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 258. – С. 03015.
20. Rajabov T. I. O 'kuvchi-yoshlarga o 'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
21. Isaev S., Rajabov T., Dolidudko A. Influence of inorganic fertilizers on cotton crop yield in saline soils //Bulletin of Science and Practice. – 2018.
22. Rajabov T. I. ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzyki i igr //Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – Т. 3. – С. 47.
23. Rajabov T. I., Ibovov U. R. Obespechenie natsionalnogo naslediya v obuchenii pesnyam buxarskogo detskogo folklor na urokax muzyki //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – С. 21-2.
24. Ражабов Т. И. Мактабда мусиқа таълимида фольклор қўшиқларининг ўрни //Тошкент давлат педагогика университети. Илмий-назарий ва методик журнал. Тошкент. – 2016. – С. 122-126.
25. Ibovovich T. R. PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM //International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI. – Т. 10. – С. 708-716.
26. Rajabov T. I. Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklornyx pesen v duchovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov //Vestnik nauki i obrazovaniya. – С. 5-2.
27. Rajabov T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore //Volume-1| Issue-1 Available online@ <https://procedia.online/index.php/philosophy>//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN.
28. Раджабов Т.И. УЗЛУКСИЗ ТАЛИМДА ФОЛЬКЛОР ҚО'ШИҚЛАРИНИ ЙДЖРО ЭТИШИХГ О'ЗИГА ХОС УСЛУБЛАРИ //Научный прогресс. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 581-585.
29. Мадримов Б.К., Раджабов Т.И. Узбекский обрядовый фольклор и его особенности //Нексус: Журнал достижений инженерной науки. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 53-56.

